Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o‘rni” mavzus...

materiallar to‘plami

TALABALARNING O‘ZBEK TILIDA KOMPYUTER SAVODXONLIGINI OSHIRISH

Tursunova F.G‘. - Farg‘ona politexnika instituti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Gapparov R. G. - Farg‘ona viloyati Bag‘dod tumani 2-sonli kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash, ta’limda multimediya vositalaridan foydalanish orqali talabalarning o‘zbek tilida kompyuter savodxonligini oshirish masalasi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: jarayon, davlat tili, kompyuter savodxonligi, nutq madaniyati, zamonaviy vositalari, savodli yozish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-oktyabrdagi "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5850-sonli Farmonida qayd etilganidek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va unga e’tibor tobora ortib bormoqda. O‘zbekistonda istiqomat qiladigan boshqa millat vakillarining davlat tilini puxta egallashiga, milliy, madaniy qadriyatlarni o‘rganishiga va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga qaratilgan. Talabalarni davlat tilida so‘zlashish, ish faoliyatida va kundalik hayotida kompyuter vositasidan to‘g‘ri foydalanish, o‘zbek tilidan egallagan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, yanada kengaytirish, tanlagan ixtisosliklari doirasida davlat tilini puxta egallashlariga yordamlashish, ularning nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, o‘zbek tilidan yuqori darajada nutqiy savodxonlikka ega bo‘lishlariga erishish, mutaxassisligi bo‘yicha berilgan adabiyotlar mazmunini tushunishga o‘rgatish o‘qituvchidan katta mahotar talab qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida til o‘qitishdan bosh maqsad talabaning o‘rta maktab ta’limida egallagan to‘gri so‘zlash, savodli yozish, aniq tafakkur qilish malakasini yuqori bosqichga ko‘tarishdir. O‘zbek tilining Davlat tili maqomiga ega bo‘lishi, uning jahon miqyosida obro‘-e’tiborining ko‘tarilishi, o‘zbek tilini o‘rganishga jahon xalqlari intilishining kuchayishi o‘zbek tilini o‘rgatishga mo‘ljallangan kompyuter dasturlariga bo‘lgan ehtiyojni yanada orttirmoqda. O‘zbek tilida talabalarning kompyuter savodxonligini oshirish, so‘z turkumlari asosida kompyuter dasturlarini yaratish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqim qilish, axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash, o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini yanada oshiradi.

Dars jarayoni murakkab ijodiy palladir. Uning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning faolligi va ularning qiziquvchanligiga bog‘liq. Ularni faollashtirish uchun zamonaviy darslarning turli xil o‘yin, bahs-munozara, musobaqa va anjuman kabi turlaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

Published: 10.11.2023

Cite this article: Tursunova F.G, Gapparov R. G (2023). Talabalarning o‘zbek tilida kompyuter savodxonligini oshirish. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/419

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish, so‘z boyligini orttirish birmuncha murakkab kechadi. Tilning ko‘rki bo‘lgan so‘z boyligini oshirish uchun har bir mashg‘ulotda Notebook, kompyuter, proyektor singari multimediya vositalari yordamida dars tashkil etilsa, o‘quvchilar eshitadi, ko‘radi, shu orqali ijodiy fikrlashni, tahlil etishni va xulosa chiqarishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, nutq madaniyatini o‘stirishda faol, ayni paytda murakkab bo‘lgan monolog, dialog shakllarini o‘rgatishga alohida e’tibor berish lozim.

Ta’lim jarayonida multimediya vositalari orqali jonajon O‘zbekiston, uning tabiati, hayvonot dunyosi, o‘zbek adiblari, o‘zbek san’atkorlari, milliy qahramonlar, buyuk allomalar ijodidan parchalar eshitishlari, tushunganlarini qayta so‘zlab berishlari ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirishga xizmat qiladi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish bilan birga ularda vatanparvarlik, umuminsoniylik, mehnasevarlik va do‘stlik tuyg‘ularini o‘stiradi, ma’naviy dunyoqarashlari kengaytiradi.

Ma’lumki yillar davomida rivojlangan inson tafakkuri uchun bugungi kunda dastlabki manba, ya’ni axborot olish hayotiy zaruriyatga aylandi. Axborotni topish, saqlash, qayta ishlash va boshqalarga etkazishning qulay usullariga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Axborotni olish, uzatish, ulashish jarayonini kompyuter va kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Jamiyatimizning barcha jabhalarida kompyuter orqali o‘rnatilayotgan aloqa, bevosida davlat tilida amalga oshirilayotganligi quvonarli holdir. Hattoki, bugun shifoxonalarda kompyuter bemorni tekshiradi, aniq tashxis qo‘yadi, muolajalar belgilaydi, musiqa yozadi, rasm chizadi va hokazo.

O‘zbek tilini yangicha qarashlar asosida ham nazariy, ham amaliy jihatdan tadqiq qilishga birdek hissa qo‘shadi. Aytaylik, yangi mavzu: "So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari" xattaxtaga yozib qo‘yiladi. Dars "Muz yorar" o‘yini bilan boshlanadi. Audeo orqali kichik bir matn o‘qib eshittiriladi: "... *nazir boshim kesak qisqon qovundek qiyshiq bo‘lib, jovdirlog‘on ko‘zim qassobdan et olib, baqqol bilan muomala qilaturg‘on darajaga etibdur. ... faqirning qorni kundan-kunga g‘ovlagan tarbuzdek o‘sib, ... Agarda o‘zingizga ham chechak chiqqan bo‘lsa sezarsiz: misoli yuzingiz g‘alvirak bodom... Ammo faqirning yuzimda ba’zi chandiqlar ham zuhurga kelgani uchun go‘yoki husni Yusuf bizda xotima topdi... agar siz bir hovuch tariqni yuzimizga qaratib sepsangiz-da, bir dona erga tushsa, biz benavat*"[1] *(250-254).*

Shundan so‘ng, yuqorida keltirilgan matn yuzasidan "Xotira mashqi" o‘tkaziladi. O‘quvlarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. Matn muallifini aniqlang.
2. Matn mazmunini so‘zlab bering.
3. Matn asosida eslab qolgan so‘zlaringizni daftarga yozish.
4. Matnda sizning e’tiboringizni tortgan so‘zlarni ajratib yozing.
5. Matndagi so‘zlarni ikki ustunga: o‘z va ko‘chma ma’nolarga ajrating.

O‘quvchilar so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari haqida quyi sinflarda olgan bilimlarini topqirlik yo‘li bilan mustahkamlashdilar. Matn muallifi - Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi haqida qo‘shimcha ma’lumot ham oladilar.

Adabiyotlar

1. Қодирий А. Диёри бакр. V жиллик. III жилд. –Т., “Info Capital Group” 2018. –Б.568
2. Muhamedova C. Kompyuter lingvistikasi (o‘quv qo‘llanma) Toshkent -2007. http://lib.jizpi.uz/pluginfile.php/5999/mod_resourcye/content/0/33Muhammedova_S_Kompyuyer%20lingvistikasi.pdf
2. Турсунова Ф.Г. Использование монолога при создании сатирических персонажей (на примере произведений Абдуллы Кодири) // Достижения науки и образования. 2018. №15 (37). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovaniye-monologa-pri-sozdanii-satiricheskih-personazhey-na-primere-proizvedeniy-abdully-kodiri
3. Tursunova Faridakhon METHODS TO REVEAL THE PSYCHE OF THE HERO IN A MONOLOGUE // Бюллетень науки и практики. 2021. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/methods-to-reveal-the-psyche-of-the-hero-in-a-monologuyeHE OF THE HERO IN

АЛГОРИТМЫ УСТОЙЧИВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ КУСОЧНО-ЛИНЕЙНЫХ ПАРАМЕТРОВ НЕСТАЦИОНАРНЫХ СИСТЕМ

Игамбердиев Х.З. – д.т.н., проф. Академик, Ташкентский государственный технический университет, г. Ташкент, Узбекистан.

Сотволдиев Х.И. – декан факультета, Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий, г. Фергана, Узбекистан.

В современной промышленности высокий уровень автоматизации присутствует на всех стадиях обработки материалов и веществ. Системы автоматического управления в производственных процессах необходимы для обеспечения безопасности технологических процессов, а также для высокой экономической эффективности технологических установок и всего производства. Значительная часть технологических процессов и установок в промышленности - это объекты управления с изменчивыми нестационарными свойствами [1].

Изменчивость является важным аспектом технологического процесса (ТП) в качестве объекта управления, поскольку его свойства могут меняться вследствие воздействия изменяющихся условий внешней среды, свойств исходного сырья, а также внутренних изменений, связанных с переналадкой, заменой оборудования, старением и износом. Нестационарность - это существенная характеристика ТП, влияющая на управление им. С помощью методов идентификации и управления нестационарными объектами можно решить значительное количество задач.

Обычно технологический процесс (ТП) определяется набором входных параметров, подлежащих контролю (наблюдению), и набором выходных параметров, также подлежащих контролю. В этой связи ТП исследуется как нестационарная динамическая система с несколькими входами и выходами [1].

Представленные выводы свидетельствуют о целесообразности построения алгоритмов адаптивного управления линейными и нелинейными нестационарными технологическими объектами, а также создания вычислительных схем, позволяющих эффективно реализовать эти алгоритмы. Это позволит обеспечить надлежащую стабильность решений и будет способствовать достижению повышения эффективности функционирования адаптивных систем управления технологическими процессами с нестационарными параметрами.

Рассмотрим задачу идентификации кусочно-линейных параметров для нестационарных систем. Пусть имеется линейная динамическая система со случайными коэффициентами, которая описывается уравнениями